

XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20583456>

Shukurboyeva Nigina Shavkat qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: A.A.To'xtamishov, f.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada xitoy va o'zbek tillari o'rtasidagi kommunikativ madaniyatlarning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi, kommunikativ tafovutlarning pragmatik asoslari aniqlanadi hamda samarali madaniyatlararo muloqot mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar

Madaniyatlararo kommunikatsiya, "Bir makon - bir yo'l" tashabbusi, lingvistik va pragmatik tahlil, nutq etiketi, verbal va noverbal muloqot, argo va jargon birliklar, ierarxik munosabat, metaforik ma'no.

LINGUISTIC ANALYSIS OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN CHINESE AND UZBEK LANGUAGES

Abstract

This article presents a comparative analysis of the linguocultural features of communicative cultures in Chinese and Uzbek languages, identifies the pragmatic bases of communicative differences, and examines mechanisms of effective intercultural communication.

Keywords

Intercultural communication, the "Belt and Road Initiative," linguistic and pragmatic analysis, speech etiquette, verbal and non-verbal communication, slang and jargon units, hierarchical relations, metaphorical meaning.

KIRISH

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, "Bir makon - bir yo'l" tashabbusi doirasida Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning rivojlanishi madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Mazkur jarayonda Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik, iqtisodiy hamda ta'lim sohalaridagi aloqalarning kengayishi turli

kommunikativ madaniyat vakillarining faol muloqotini yuzaga keltirmoqda. Xususan, diplomatik muzokaralar, biznes kommunikatsiyasi, ta'lim almashinuvi hamda tarjima faoliyati jarayonida lingvistik va pragmatik tafovutlarning yaqqol namoyon bo'lishi kuzatilmoqda. Shu sababli Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik hamda pragmatik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi madaniyatlararo kommunikatsiyaning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil, lingvokulturologik yondashuv hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xitoy va O'zbekiston kommunikativ madaniyatlari o'rtasidagi tafovutlar asosan pragmatik yondashuv, nutq etiketi hamda ijtimoiy munosabatlarni ifodalash usullarida kuzatiladi.

Xitoy kommunikativ madaniyatida ierarxik munosabatlar va kollektivizm tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli xitoylik suhbatdoshlar muloqot davomida ehtiyotkor va bilvosita nutq strategiyasidan foydalanishga odatlanishadi. Ayniqsa, rad etish yoki tanqidiy fikrlarni ifodalashda yumshoq pragmatik vositalar qo'llanadi. Masalan, "bu masalani keyinroq ko'rib chiqamiz" kabi iboralar ayrim vaziyatlarda rad javobi ma'nosini anglatishi mumkin. O'zbek kommunikativ madaniyatida esa samimiylik, mehmondo'stlik va ochiq muloqot ustuvor hisoblanadi.

O'zbek tilida, hurmat kategoriyasi murojaat shakllari orqali faol ifodalanadi. "Aka", "opa", "ustoz" kabi birliklar suhbatdoshga nisbatan hurmat va yaqinlikni bildiradi. Bu jihatlar ayrim hollarda Xitoy kommunikativ madaniyatidagi rasmiylik yaqqol farqlanadi. Masalan, xitoy tilida hurmat va rasmiylikni ifodalash uchun familiya hamda lavozimni birgalikda qo'llash odatiy hol hisoblanadi: 王老师 (Wáng lǎoshī) – "Ustoz Van", 李经理 (Lǐ jīnglǐ) – "Menejer Li", 张教授 (Zhāng jiàoshòu) – "Professor Chjan".

Bu murojaat shakllarida suhbatdoshning ijtimoiy maqomi va kasbiy mavqei alohida ta'kidlanadi. O'zbek tilidagi "aka", "opa" kabi yaqinlik va samimiyatni bildiruvchi birliklardan farqli ravishda, xitoy tilida rasmiylik va ierarxik munosabat ustunroq namoyon bo'ladi.

Xususan, o'zbek kommunikativ madaniyatidagi bevosita fikr bildirish usuli xitoylik suhbatdosh tomonidan keskin javob sifatida qabul qilinishi mumkin. Aksincha, xitoyliklarning bilvosita javoblari o'zbek tomonida noaniqlik hissini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, tarjima jarayonida lingvokulturologik birliklarning mos ekvivalentini topish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Masalan, xitoy tilidagi “面子” (“miànzi”) tushunchasi ijtimoiy obro‘ va sha‘n ma‘nolarini ifodalasa-da, uning o‘zbek tilidagi to‘liq semantik ekvivalenti mavjud emas. Bu esa tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik va madaniy tajribani talab qiladi.

Ammo ayrim maqol va iboralar mavjudki, ularning xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjimasi mazmunan mos kelsa-da, ularda aks etgan madaniy va ijtimoiy omillar turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, xitoy tilidagi “吃得苦中苦，方为人上人” (chī dé kǔ zhōng kǔ, fāng wéi rén shàng rén) maqoli “Eng og‘ir mashaqqatlarni boshdan kechirgan insongina yuqori mavqega erishadi” degan ma‘noni anglatib, unda mehnatsevarlik va sabr-toqat qadriyatlari yuksak darajada ulug‘lanadi. O‘zbek tilidagi “Mehnat qilgan odam hurmat topar” maqoli mazmun jihatidan ushbu fikrga yaqin bo‘lsa-da, unda ko‘proq insonning jamiyatdagi obro‘-e‘tibori va ijtimoiy hurmatga erishishi g‘oyasi aks etadi.

Xitoy tilidagi ayrim argo va jargon birliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular ko‘pincha metaforik ma‘noga ega bo‘lib, so‘zning rasmiy yoki lug‘aviy ma‘nosidan chetga chiqib qo‘llaniladi. Masalan, xitoy tilidagi “吃瓜群众” (chī guā qúnzhòng) birikmasi “voqealarni chetdan kuzatuvchi tomoshabinlar” ma‘nosini anglatadi (so‘zma-so‘z tarjimasi: “qovun yeyuvchi omma”). Ushbu birlik tarkibidagi morfemalar o‘zining lug‘aviy ma‘nosini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ularning birikishi natijasida metaforik ma‘no hosil bo‘ladi. Bunda birlikning grammatik va sintaktik tuzilishi til me‘yorlariga mos holda saqlanib qoladi.

O‘zbek tilida ham argo birliklar ko‘pincha metaforik, emotsional hamda muayyan ijtimoiy guruhga xos ma‘nolarni ifodalaydi. Masalan, “quruq qo‘l” iborasi moddiy mablag‘ga ega bo‘lmagan shaxsni anglatish uchun qo‘llaniladi. Mazkur birlik lug‘aviy jihatdan rasmiy leksik qatlamga mansub bo‘lmasa-da, grammatik va sintaktik jihatdan o‘zbek tili me‘yorlariga muvofiq ravishda qo‘llaniladi. Bu holat har ikkala tilda ham argo birliklarning semantik jihatdan o‘ziga xos xususiyat kasb etishi, biroq grammatik tizim bilan uyg‘un holda faoliyat yuritishini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, samarali madaniyatlararo kommunikatsiyani shakllantirish uchun nafaqat xorijiy tilni bilish, balki milliy mentalitet va pragmatik me‘yorlarni ham chuqur o‘rganish zarur hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi xitoy va o‘zbek tillaridagi kommunikativ kontekstlarining lingvopragmatik jihatdan qiyosiy tahlil qilinganligi bilan belgilanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yil sayin kengayib borayotgan hamkorlik tashabbuslari Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratmoqda. Mazkur hamkorlik jarayonida madaniyatlararo kommunikatsiya muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi kommunikativ jarayonlarda lingvistik hamda pragmatik xususiyatlarning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari Xitoy va O'zbekiston kommunikativ madaniyatlari o'rtasida verbal va noverbal muloqot, nutq etiketi, murojaat shakllari hamda pragmatik strategiyalar borasida muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Ayniqsa, biznes kommunikatsiyasi, diplomatik muzokaralar va tarjima jarayonlarida ushbu tafovutlar yaqqol namoyon bo'lishi aniqlandi.

Shuningdek, samarali madaniyatlararo kommunikatsiyani shakllantirish uchun nafaqat xorijiy tilni bilish, balki milliy mentalitet, madaniy qadriyatlar va pragmatik me'yorlarni ham chuqur o'rganish zarurligi asoslandi. Shu nuqtai nazardan, xorijiy til ta'limida lingvokulturologik yondashuvni keng qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot natijalari Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi ta'lim, diplomatiya, biznes hamda tarjimashunoslik sohalarida samarali kommunikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh. *Pragmatik tilshunoslik*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
2. Mahmudov N. *Til va madaniyat*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
3. Nurmonov A. *Lingvokulturologiya asoslari*. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Hall E. T. *Beyond Culture*. – New York: Anchor Books, 1976.
5. Hofstede G. *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. – London: McGraw-Hill Education, 2010.
6. Samovar L., Porter R., McDaniel E. *Intercultural Communication: A Reader*. – Boston: Cengage Learning, 2012.
7. Kramsch C. *Language and Culture*. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
8. Jalilova H. *Xitoy va o'zbek tillarida argo va jargonlarning qo'llanilishi*. Modern education and development, 2026

9. Zokirova M. *Xitoy tilidagi maqollarda milliy madaniy farqlar*. -Toshkent: Globalizatsiya va barqaror rivojlanish davrida tarjima masalalari yechimlari va chet tillarini o'qitishdagi innovatsiyalar, 2025.
10. Jalilova H. *Xitoy va o'zbek tillarida argo va jargonlarning qo'llanilishi*. Modern education and development, 2026.